O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

# TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR-FEVRAL*
*(DASTLABKI MA’LUMOT)*



Sanoat **statistikasi boshqarmasi**
**Tel.: 71-202-80-46**

# Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-fevral oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida shahar korxonalari tomonidan 9,8 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 110,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (70,7 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6,9 trln. so‘mni tashkil etdi.




***B*** *– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,* ***C*** *– Ishlab chiqaradigan sanoat* ***D*** *– Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,* ***E*** *– Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha**
**sanoat ishlab chiqarishi, FHI*** *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 27,5 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 3,5 % ga o’sishi kuzatildi. Hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash 14,3 %, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 14,4 % ga, pasayish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi*** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,0 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 20,0 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
*(yanvar-fevral oylarida, % da)*






## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

**Gaz kondensati**




**Tabiiy gaz**




**Neft**




**Shag‘al**




**Chaqiq tosh**




## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar- fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Neft,** *ming t.* | 108,3 | 98,4 | -9,9 |
| **Tabiiy gaz,** *mln. kub.m.* | 5 689,7 | 5 848,9 | 159,2 |
| **Gaz kondensati,** *ming t.* | 122,3 | 123,2 | 0,9 |
| **Chaqiq tosh,** *ming t.* | 1,6 | 1,3 | -0,3 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat







2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,9 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 70,7 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi**,
*(yanvar-fevral oylarida, % da)*







O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 16,5 % ni (2021- yilning yanvar-fevral oylarida – 8,8 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 18,8 % (24,2 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 23,3 %  (29,0 %) va quyi texnologiyalisi – 37,4 % (38,0 %)ni tashkil etdi.

**Yuqori texnologiyali**




**O‘rta-yuqori texnologiyali**



| O‘rta-quyi texnologiyali | | Quyi texnologiyali | |
|---|---|---|---|
| Ulushi % da | | Ulushi % da | |
| 29,0 | 2021- y. | 38,0 | 2021- y. |
| 23,3 | 2022- y. | 37,4 | 2022- y. |

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 19,0 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 10,1 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 214,7 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,0 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 63,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,1 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,1 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,9 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2022- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 451,4 ming litr 100 % li konyak spirti (1,6 % ga oshgan), 7768,6 ming litr pivo mahsulotlari (0,5 %) hamda 5,7 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (58,8 % ga kamaygan) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

| O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|
| O‘simlik yog‘I (tozalangan) | Margarin va yormalar | Yumshoq bug‘doy va spelta uni |










| Pivo | Aroq | Uzum vinosi |
|---|---|---|










| Tamaki mahsulotlari | Trikotaj yoki trikotaj matolar |
|---|---|







## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni,** *ming t.* | 13,9 | 5,7 | -8,2 |
| **Paxta kalavasi,** *ming tonna.* | 7,6 | 4,9 | -2,7 |
| **Margarin va yormalar** *tonna.* | 1 080,0 | 708,0 | -372,0 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Pivo** – *ming litr* | 7 807,3 | 7 768,6 | -38,7 |
| **Paxta kalavasi** - *ming tonna.* | 7,6 | 4,9 | -2,7 |
| **Traktorlar - dona** | 44,0 | 5,0 | -39,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-fevral oylarida qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 213 dona traktorlar ishlab chiqarildi, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 31,6 % ga kamaygan.

**Toshkent shaharda traktor ishlab chiqarish sanoati,**
*yanvar-fevral oylarida*

*miqdori dona*




*o‘sish sur’ati, % da*



## Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar,** t. | 2390,0 | 2549,0 | 159,0 |
| **Tamaki mahsulotlari,** *mln. dona* | 463,9 | 378,2 | -85,7 |

## Metallurgiya sanoati

*(yanvar-fevral)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati ulushi 5,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 28,6 % ga ko'paygan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 10,1 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 214,7 % va ishlab chiqarish hajmi 985,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(yanvar-fevral oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-fevral oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 8,9 % ga kamaygan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 24,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 370,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



FHI
% da




## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-fevral oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 8,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,0 %, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 18,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 974,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



FHI
% da



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-fevral oylarida)*






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-fevral oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 1,4 % ga oshgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,5 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 92,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 539,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-fevral oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-fevral oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 103,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-fevral oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 20,3 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 4524,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.





## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-fevral oylarida)*




2022-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 67,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 45,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 54,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-fevral oylarida)*

2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 96,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yan-var-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi 5,6 % ga ko’paydi, ishlab chiqarish hajmi esa 2702,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.






**<u>Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish</u>**

*(yanvar-fevral oylarida)*







2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 76,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 44,3 % ga kamaygan bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi 147,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**<u>Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish</u>**

*(yanvar-fevral oylarida)*

FHI
% da






2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirka-malar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 161,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 17,5 % ga kamaydi hamda ishlab chiqarish hajmi 512,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(yanvar-fevral oylarida)*

2022- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plast-massa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 108,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6 % ni, fizik hajm indeksi 111,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3075,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



FHI
% da




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-fevral oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,4 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (8,8 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 20,2 % ga kamayganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**
*(yanvar-fevral oylarida, % da)*







**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 433,5 | 354,5 | -79,0 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 13 545,2 | 13 517,0 | -28,2 |
| **Elektroenergiya uzatish bo’yicha xizmatlar, ming so ‘m.** | 1 066 355,0 | 817 727,0 | -248628,0 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-fevral oylarida*




Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,2 trln.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 21,8 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-fevral oylarida, % da)*




| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-fevral | 2022- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 95,9 | 98,7 | 2,8 |
| **(Xavfli bo‘lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna** | 440,2 | 415,8 | -24,4 |
| **Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta’minlash, mlrd. so‘m** | 212,4 | 190,1 | -22,3 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo‘lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo‘yicha xizmatlar 5,5 % ga kamaydi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta’minlash 10,5 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo’yicha xizmatlar 2,9 % ga o’shish kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 34,0 trln.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 128,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 39,5 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,1 % (2021- yil yanvar-fevral oylarida 4,3 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib 21,2 % ni, shuningdek, Chilonzor tumani 12,5 % ni, Olmazor tumani 10,7 % ni hamda Sergeli tumani 9,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida shaharda o'sish sur'ati (107,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Chilonzor (168,0 %), Yashnobod (149,8 %), Yakkasaroy (131,8 %), Bektemir (131,3 %), Mirobod (125,8%), Olmazor (123,6%) tumanlarida hamda Mirzo Ulug'bek tumanida (123,2 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022-yilning yanvar-fevral oylarida*

| | Hudud | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|---|
|  | **Toshkent shahri** | **34029,8** | **100** | **128,3** |
|  | **Uchtepa** | **2681,0** | **7,9** | **99,2** |
|  | **Bektemir** | **3185,8** | **9,4** | **131,3** |
|  | **Yunusobod** | **1563,1** | **4,6** | **107,5** |
|  | **Mirzo Ulug’bek** | **1693,3** | **5,0** | **111,7** |
|  | **Mirobod** | **2414,0** | **7,1** | **123,2** |
|  | **Shayxontoxur** | **1035,0** | **3,0** | **118,5** |
|  | **Olmazor** | **3632,6** | **10,7** | **123,6** |
|  | **Sergeli** | **3206,4** | **9,4** | **117,9** |
|  | **Yakkasaroy** | **2043,6** | **6,0** | **131,8** |
|  | **Yashnobod** | **7216,9** | **21,2** | **149,8** |
|  | **Yangihayot** | **1088,2** | **3,2** | **107,4** |
|  | **Chilonzor** | **4269,9** | **12,5** | **168,0** |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to‘g‘ri kelib, 24,2 % shuningdek, Chilonzor 15,2 %, Mirobod tumani 9,9 % ni, Olmazor tumani 9,3 % ni tashkil etdi.

## <u>Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati</u>

*2022- yilning yanvar-fevral oylarida*

| Hudud | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | **21406,4** | **100** | **139,4** |
| **Uchtepa** | **2000,1** | **9,3** | **99,5** |
| **Bektemir** | **490,3** | **2,3** | **99,1** |
| **Yunusobod** | **764,5** | **3,6** | **111,3** |
| **Mirzo Ulug’bek** | **1334,4** | **6,2** | **121,0** |
| **Mirobod** | **2114,4** | **9,9** | **129,5** |
| **Shayxontoxur** | **714,1** | **3,3** | **148,4** |
| **Olmazor** | **1992,4** | **9,3** | **133,6** |
| **Sirg’ali** | **1627,8** | **7,6** | **130,0** |
| **Yakkasaroy** | **1257,5** | **5,9** | **120,4** |
| **Yashnobod** | **5186,7** | **24,2** | **182,7** |
| **Yangihayot** | **660,8** | **3,1** | **95,8** |
| **Chilonzor** | **3263,4** | **15,2** | **200,5** |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to‘g‘ri kelib 24,0 % ni, shuningdek, Olmazor tumani 14,6 % ni, Sirg’ali tumani esa 13,0 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-fevral oylarida*

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | **11221,8** | **100** | **114,3** |
| **Uchtepa** | **680,9** | **6,1** | **98,5** |
| **Bektemir** | **2693,8** | **24,0** | **139,6** |
| **Yunusobod** | **703,3** | **6,3** | **103,3** |
| **Mirzo Ulug’bek** | **358,8** | **3,2** | **86,7** |
| **Mirobod** | **299,4** | **2,7** | **91,7** |
| **Shayxontoxur** | **233,0** | **2,1** | **80,4** |
| **Olmazor** | **1640,2** | **14,6** | **113,2** |
| **Sergeli** | **1458,9** | **13,0** | **106,1** |
| **Yakkasaroy** | **785,8** | **7,0** | **155,5** |
| **Yashnobod** | **941,8** | **8,4** | **101,5** |
| **Yangihayot** | **427,4** | **3,8** | **132,4** |
| **Chilonzor** | **998,5** | **8,9** | **110,1** |

# Toshkent shahri  hududlari kesimida
# sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar-fevral oylarida*

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | **86099,6** | **100,0** | **113,9** |
| **Uchtepa** | **4475,1** | **5,2** | **104,1** |
| **Bektemir** | **6019,1** | **7,0** | **108,5** |
| **Yunusobod** | **4417,5** | **5,1** | **98,6** |
| **Mirzo Ulug’bek** | **5054,9** | **5,9** | **97,1** |
| **Mirobod** | **7796,2** | **9,1** | **107,6** |
| **Shayxontoxur** | **5829,1** | **6,8** | **116,3** |
| **Olmazor** | **6752,1** | **7,8** | **112,4** |
| **Sergeli** | **6532,8** | **7,6** | **115,5** |
| **Yakkasaroy** | **5260,7** | **6,1** | **116,0** |
| **Yashnobod** | **22644,4** | **26,3** | **111,4** |
| **Yangihayot** | **2632,2** | **3,1** | **107,0** |
| **Chilonzor** | **8679,5** | **10,1** | **119,8** |

## Toshkent shahri hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o‘sish sur’ati (120,1 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Chilonzor (168,0 %), Yashnobod (149,8 %), Yakkasaroy (131,8 %) hamda Bektemir tumanlarida (131,3 %) qayd etildi.

**Toshkent shahri jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Shaharda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Yashnobod tumani (shaharda sanoat ishlab chiqarish hajmining 26,3 % ) hamda Chilonzor (10,1 %), Mirobod (9,1 %), Olmazor (7,8 %) va Bektemir (7,0 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Yangihayot (3,1 %) hamda Yunusobod (5,1 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik

sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Bektemir (109026,2 ming so‘m), Yashnobod (73363,4 ming so‘m) hamda Mirobod tumanida (45430,9 ming so‘m) o‘rtacha shaharda daraja ko‘rsatkichidan (6734,7 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

| | ***Sanoat mahsulotlari*** | ***Iste’mol mahsulotlari*** |
|---|---|---|

Shahar bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 10550,0 ming so‘m, Bektemir tumanida – 61165,7 ming so‘mni, Yashnobod tumanida – 22298,6 ming so‘mni, Sirg’ali tumanida – 20442,2 ming so‘mni, Mirobod tumanida –14827,8 ming so‘mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

*2022- yilning yanvar-fevral oylarida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| | 30 538,8 | 12 070,1 |
| **Toshkent shahri** | | |
| **Uchtepa** | 15 867,0 | 9 505,9 |
| **Bektemir** | 123 933,4 | 65 596,4 |
| **Yunusobod** | 12 427,8 | 4 397,6 |
| **Mirzo Ulug'bek** | 16 445,5 | 5 508,8 |
| **Mirobod** | 54 005,2 | 16 721,7 |
| **Shayxontohur** | 16 587,8 | 2 945,2 |
| **Olmazor** | 17 708,2 | 9 527,0 |
| **Sirg'ali** | 47 047,3 | 23 091,7 |
| **Yakkasaroy** | 42 836,5 | 16 640,2 |
| **Yashnobod** | 81 749,4 | 26 053,9 |
| **Yangihayot** | 17 998,6 | 7 413,6 |
| **Chilonzor** | 32 924,9 | 16 197,6 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2022- yilning yanvar-fevral oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 31,2 trln. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 65,1%), Yunusobod (54,9 %), Sirg’ali (52,2 %), Chilonzor (49,6 %) hamda Yangihayot (45,9 %) tumanlarida kuzatildi.






Toshkent shahar hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Yashnobod (18,1 %), Mirobod (22,4 %), Shayxontohur (20,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

*(2022- yil 1- yanvarr holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,1 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 2,1 mingtasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 12,9 % i) Olmazor tumanida, 2,0 mingtasi (12,3 %) Chilonzor tumaniga, 1,8 mingtasi (11,3 %) Uchtepa tumaniga, 1,7 mingtasi (10,7 %) Yunusobod tumaniga, 1,4 mingtasi (8,8 %) Shayxontohur tumaniga, 1,4 mingtasi (8,6 %) Mirzo Ulug’bek tumaniga to‘gri kelmoqda.




2022- yilning yanvar-fevral oylarida shahardada 2 066 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 230 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi 11,1 %) Chilonzor tumanida, 228 tasi (11,0 %) Olmazor tumanida, 205 tasi (9,9 %) Uchtepa tumanida, 203 tasi (9,8 %) Shayxontohur tumanida, 198 tasi (9,6 %) Yunusobod tumanida hamda 185 tasi (9,0 %) Mirzo Ulug’bek tumanida tashkil etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari**

*2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 074 ta), Chilonzor (1 985 ta), Uchtepa (1 822 ta), Yunusobod (1 713 ta) hamda Shayxontohur (1 423 ) tumanlarida qayd etildi.

**Toshkent shahrida eng ko‘p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi**

*(2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




**Toshkent shahrida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi**

*(2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*




2022-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (552 ta), Yangihayot (604 ta), Mirobod (956 ta), Sirg’ali (1 014 ta), Yakkasaroy (1 203 ta), Yashnobod (1 369 ta), Mirzo Ulug’bek (1379),Shayxontohur (1423), Yunusobod (1713), Uchtepa (1822) tumanlarida qayd etildi.

**Sanoat statistikasi bo’limi**

*Tel.: (71) 203-88-16*